



**HUJJATLARNING TEXNIK-KRIMINALISTIK
EKSPERTIZASIDA MUXR VA SHTAMPLAR BO'YICHA
EKSPERTIZA TADQIQOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Qirg'izboev Ma'rufjon Odiljon o'g'li

O'zbekiston respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi Kriminalistik ekspertizalar kafedrası o'qituvchisi

Tel: 94-174-50-40

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20566727>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2026 yil

Ma'qullandi: 28-may 2026 yil

Nashr qilindi: 30-may 2026 yil

KEYWORDS

Hujjatlar texnik ekspertizasi, muhr va shtamp tushunchasi, identifikatsiya, hujjatning haqiqiyliigi, muxr va shtamlarni qalbakilashtirish usullari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada muhr va shtamplar hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasida muhim obyekt sifatida tahlil qilinadi. Muhr va shtamp izlarining hujjatlardagi ahamiyati, ular orqali hujjatning haqiqiyliigi yoki soxtaligi aniqlanishi masalalari yoritiladi. Shuningdek, muhr va shtamp izlarining shakliy va grafik xususiyatlari, ularni tadqiq etish usullari hamda kriminalistik ekspertiza jarayonida qo'llaniladigan ilmiy-texnik vositalar tahlil qilinadi. Maqolada muhr va shtamp izlarini aniqlash, taqqoslash va identifikatsiya qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar hamda ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasida muhr va shtamp izlarini o'rganish hujjatlarning haqqoniyligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslanadi.

Hujjatlar jamiyat hayotida muhim huquqiy va axborot manbai hisoblanadi. Davlat boshqaruvi, iqtisodiy munosabatlar, huquqni muhofaza qilish faoliyati, shuningdek fuqarolik-huquqiy munosabatlarda turli xil hujjatlardan keng foydalaniladi. Hujjatlar orqali ma'lum bir huquqiy holatlar tasdiqlanadi, huquq va majburiyatlar yuzaga keladi yoki bekor qilinadi. Shu sababli hujjatlarning haqqoniyligi, ulardagi ma'lumotlarning ishonchliligi hamda rasmiyligini ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday holatda hujjatlarda qo'llaniladigan muhr va shtamplar ularning rasmiyligini tasdiqlovchi asosiy rekvizitlardan biri sifatida xizmat qiladi.

Muhr va shtamplar davlat organlari, tashkilotlar va muassasalar tomonidan hujjatlarni rasmiylashtirishda keng qo'llaniladi. Ular hujjatning aslligini, uning muayyan tashkilot yoki mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlanganligini bildiruvchi muhim belgilardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, muhr va shtamp izlari hujjatning haqiqiyliigi yoki soxtaligini aniqlashda muhim kriminalistik ahamiyatga ega. Amaliyotda ba'zi hollarda hujjatlarni soxtalashtirish, muhr va shtamlarni qalbaki tayyorlash yoki ulardan noqonuniy foydalanish holatlari uchrab turadi. Bunday holatlarda hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi muhim dalillardan biri sifatida xizmat qiladi.

Hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi kriminalistika fanining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u hujjatlarning tayyorlanish usuli, ularga kiritilgan o'zgartishlar,

soxtalashtirish belgilari hamda hujjatlardagi turli izlarni aniqlash va tadqiq etishga qaratilgan. Ushbu ekspertiza turida muhr va shtamp izlari alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganiladi. Chunki muhr va shtamplar muayyan grafik, geometrik va texnologik xususiyatlarga ega bo'lib, ular orqali muayyan muhr yoki shtampning kelib chiqish manbasini aniqlash, shuningdek ularning qalbaki yoki haqiqiy ekanligini belgilash mumkin.

Muhr va shtamlarni kriminalistik tadqiq etish jarayonida ularning shakli, o'lchami, matn joylashuvi, harflarning grafik xususiyatlari, izning bosilish darajasi, bo'yoqning tarqalishi va boshqa bir qator texnik belgilari tahlil qilinadi. Bu belgilar ekspertga muayyan muhr yoki shtamp izini boshqa namunalar bilan taqqoslash, ularning identifikatsiyasini amalga oshirish hamda hujjatning haqiqiyliigi to'g'risida ilmiy asoslangan xulosa berish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi muhr va shtamlarni tayyorlash hamda ularni qalbakilashtirish usullarining ham murakkablashib borishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasida yangi ilmiy-amaliy yondashuvlardan foydalanishni taqozo etadi.

Bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida hujjatlar bilan bog'liq jinoyatlar, xususan, qalbaki hujjatlar tayyorlash, muhr va shtamlardan noqonuniy foydalanish bilan bog'liq holatlar keng tarqalgan. Shu bois, muhr va shtamlarni kriminalistik jihatdan chuqur o'rganish, ularning hujjatlarning texnik ekspertizasidagi o'rni va ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada muhr va shtamplar hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasining ob'ekti sifatida o'rganilib, ularning kriminalistik xususiyatlari, tadqiqot usullari hamda identifikatsiya jarayonidagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, muhr va shtamp izlarini tekshirish jarayonida yuzaga keladigan ayrim muammolar va ularni bartaraf etishning ilmiy-amaliy yo'llari ham ko'rib chiqiladi.

Materiallar va metodlar

Mazkur tadqiqotda muhr va shtamlarni hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasining muhim ob'ekti sifatida o'rganishga qaratilgan nazariy va amaliy materiallardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida kriminalistika sohasidagi ilmiy adabiyotlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar amaliyotida uchraydigan hujjatlar namunalari, shuningdek muhr va shtamp izlari tushirilgan turli xil rasmiy va norasmiy hujjatlar tahlil qilindi. Material sifatida davlat tashkilotlari, korxonalar va muassasalar faoliyatida qo'llaniladigan muhr va shtamp izlari mavjud bo'lgan hujjatlar, ularning nusxalari, shuningdek maxsus tayyorlangan tajriba namunalari o'rganildi.

Tadqiqot materiallari sifatida turli xil shakl va mazmunga ega muhr va shtamp izlari tushirilgan hujjatlardan foydalanildi. Jumladan, doiraviy muhrlar, to'rtburchak va to'g'ri to'rtburchak shakldagi shtamplar, xizmat muhrlari, sana shtamlari hamda turli tashkilotlarga tegishli identifikatsion shtamplar tahlil qilindi. Ushbu namunalar hujjatlardagi muhr va shtamp izlarining grafik, morfologik va texnik xususiyatlarini aniqlash hamda ularni o'zaro taqqoslash imkonini berdi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida muhr va shtamp izlarining qalbakilashtirilgan holatlarini aniqlash maqsadida eksperimental tarzda olingan namunalar ham qo'llanildi.

Shuningdek, tadqiqotda maxsus kriminalistik metodlardan ham keng foydalanildi. Xususan, vizual va mikroskopik tahlil usullari muhr va shtamp izlarining mayda detallarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Mikroskopik tadqiqot usuli orqali muhr va shtamp izlaridagi mayda nuqsonlar, harf va belgilarning deformatsiyasi,

chiziqlarning notekisligi va boshqa individual belgilari o'rganildi. Bu belgilar muayyan muhr yoki shtampni identifikatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Eksperimental metod ham mazkur tadqiqotning muhim tarkibiy qismi bo'ldi. Ushbu metod orqali turli materiallardan tayyorlangan muhr va shtamplar yordamida tajriba izlari olindi va ularning hujjatda qoldirgan izlari o'rganildi. Bu tajribalar muhr va shtamp izlarining shakllanish xususiyatlarini, bo'yoqning tarqalish darajasini, bosilish kuchining ta'sirini va boshqa texnik omillarni aniqlash imkonini berdi.

Shu tariqa, tadqiqotda qo'llanilgan materiallar va metodlar muhr va shtamplarni hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi ob'ekti sifatida har tomonlama o'rganish, ularning kriminalistik ahamiyatini aniqlash hamda hujjatlarning haqiqiylikini belgilashdagi rolini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi.

Natijalar va muhokama

Mazkur tadqiqot doirasida muhr va shtamplarni hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasining ob'ekti sifatida o'rganish natijasida ularning kriminalistik ahamiyati va identifikatsiya imkoniyatlari aniqlandi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, hujjatlardagi muhr va shtamp izlari nafaqat hujjatning rasmiyligini tasdiqlovchi rekvizit sifatida, balki uning haqiqiyliги yoki soxtaligini aniqlashda muhim kriminalistik axborot manbai sifatida ham xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida turli shakl va tuzilishga ega bo'lgan muhr va shtamp izlari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, har bir muhr va shtamp o'zining muayyan grafik va texnik xususiyatlariga ega bo'lib, ular orqali mazkur izlarning kelib chiqish manbasini aniqlash mumkin. Jumladan, muhr va shtamp izlarining shakli, o'lchami, matn joylashuvi, harflarning grafik xususiyatlari, chiziqlarning qalinligi va bosilish darajasi ularni identifikatsiya qilishda muhim belgilar hisoblanadi.

Tahlillar natijasida muhr va shtamp izlarida umumiy va xususiy belgilari mavjudligi aniqlandi. Umumiy belgilariga muhr yoki shtampning shakli, geometrik o'lchamlari, matnning joylashuv tartibi va kompozitsiyasi kiradi. Ushbu belgilar muhr yoki shtampning muayyan turini va uning qaysi tashkilotga tegishli bo'lishi mumkinligini aniqlash imkonini beradi. Xususiy belgilari esa muhr yoki shtamp tayyorlash jarayonida yoki undan foydalanish davomida yuzaga keladigan individual nuqsonlar bilan bog'liq bo'ladi. Bularga harflarning qisman deformatsiyasi, chiziqlarning notekisligi, ayrim elementlarning etarlicha aniq tushmasligi, rezina yoki boshqa materiallarda paydo bo'ladigan mayda shikastlanishlar kiradi. Mazkur xususiyatlar muayyan muhr yoki shtampni boshqalaridan farqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksperimental tadqiqotlar davomida turli materiallardan tayyorlangan muhr va shtamplar yordamida hujjatlarga izlar tushirildi. Bu tajribalar muhr va shtamp izlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash imkonini berdi. Xususan, bosilish kuchining o'zgarishi, bo'yoqning miqdori, muhr yuzasining holati va hujjat qog'ozining xususiyatlari izning aniqligi va ko'rinishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Masalan, ortiqcha bosim natijasida izlar tarqalgan va ba'zi elementlar deformatsiyalangan holda aks etgani kuzatildi. Kam bosim holatida esa ayrim elementlar to'liq tushmasligi yoki noaniq ko'rinishda bo'lishi mumkinligi aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida muhr va shtamplarni qalbakilashtirishning ayrim usullari ham tahlil qilindi. Amaliyotda qalbaki muhr va shtamplar

turli usullar, jumladan, kompyuter grafikasi yordamida tayyorlangan tasvirlarni chop etish, fotopolimer materiallardan nusxa olish yoki boshqa texnik vositalar orqali yaratilishi mumkinligi kuzatildi. Bunday holatlarda qalbaki muhr va shtamp izlarida bir qator o'ziga xos belgilar namoyon bo'ladi. Masalan, chiziqlarning sun'iy ravishda bir xil qalinlikda bo'lishi, matn elementlarining ortiqcha simmetrikligi yoki ayrim grafik nuqsonlarning mavjud emasligi kabi holatlar qalbakilik alomati sifatida baholanishi mumkin.

Shu tariqa, olib borilgan tadqiqot natijalari muhr va shtamplar hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasida alohida ahamiyatga ega ob'ekt ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Ularning grafik va texnik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish orqali hujjatlarning haqiqiyliigi, muhr va shtamp izlarining kelib chiqishi hamda ularning qalbaki yoki asl ekanligi haqida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish mumkin.

Xulosa va amaliy takliflar

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muhr va shtamplar hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasida muhim va mustaqil tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Hujjatlarning rasmiyligi, ulardagi ma'lumotlarning ishonchliligi va huquqiy ahamiyatini belgilashda muhr va shtamp izlari katta kriminalistik axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli ularni ilmiy asosda tadqiq etish, ularning umumiy va xususiy belgilari asosida tahlil qilish hujjatlarning haqiqiyliigi yoki soxtaligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, har bir muhr va shtamp muayyan grafik, geometrik va texnologik xususiyatlarga ega bo'lib, ushbu xususiyatlar ularni identifikatsiya qilish imkonini beradi. Muhr va shtamp izlarining shakli, o'lchami, matn elementlarining joylashuvi, harf va belgilarning grafik tuzilishi, chiziqlarning qalinligi, izning bosilish darajasi va bo'yoq tarqalish xususiyatlari ularni kriminalistik jihatdan o'rganishda asosiy belgilar hisoblanadi. Ushbu belgilarni kompleks tarzda tahlil qilish orqali muayyan muhr yoki shtampning qaysi manbaga tegishli ekanligini aniqlash mumkin.

Shu nuqtai nazardan, muhr va shtamp izlarini tadqiq etishda mikroskopik tahlil, raqamli tasvirlarni qayta ishlash, fotosurat tahlili va eksperimental tadqiqot usullaridan kompleks ravishda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu usullar muhr va shtamp izlarining mayda detallarini aniqlash, ularning shakllanish xususiyatlarini o'rganish va qalbakilik alomatlarini belgilash imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqot asosida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

❖ Hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertisasi sohasida muhr va shtamp izlarini tadqiq etish bo'yicha yagona ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu ekspertiza jarayonida yagona yondashuvni ta'minlashga yordam beradi.

❖ Sud-ekspert muassasalarida muhr va shtamp izlarini tadqiq etish uchun zamonaviy texnik vositalar, xususan, yuqori aniqlikdagi mikroskoplar, raqamli tasvir tahlil tizimlari va maxsus dasturiy ta'minotlardan foydalanishni kengaytirish lozim.

❖ Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va sud ekspertlari uchun muhr va shtamplarni kriminalistik tadqiq etish bo'yicha maxsus o'quv dasturlari va malaka oshirish kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

❖ Muhr va shtamplarni tayyorlash va ulardan foydalanish jarayonini nazorat qilish tizimini takomillashtirish, shuningdek ularni ro'yxatga olish va hisobga olishning yagona

elektron bazasini yaratish qalbakilashtirish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

❖ Muhr va shtamlarni tayyorlashda maxsus himoya elementlarini qo'llash, masalan, mikroyozuvlar, murakkab grafik elementlar yoki maxsus materiallardan foydalanish orqali ularni qalbakilashtirish ehtimolini kamaytirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, muhr va shtamlar hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasida muhim tadqiqot ob'ekti bo'lib, ularni chuqur va har tomonlama o'rganish hujjatlar bilan bog'liq huquqbuzarliklarni aniqlash, qalbaki hujjatlarni fosh etish hamda sud ekspertisasi amaliyoti samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish va amaliyotga zamonaviy tadqiqot usullarini joriy etish kelgusida hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertisasi samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertisasi to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2021.
- 2.Belkin R.S. Kriminalistika: darslik. – Moskva: Norma, 2019.
- 3.Mamatqulov T.B. Hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertisasi ma'ruzalar kursi – O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi nashriyoti, 2017.
- 4.Snetkov V.A. Техничко-криминалистическое исследование документов. – Москва: Юридическая литература, 2017.
- 5.Vinberg A.I., S'hvankova M.V. Криминалистика: учебное пособие. – Москва: Инфра-М, 2018.
- 6.Rossinskaya Ye.R., Galyas'hina Ye.I. Судебная экспертиза: учебник и практикум. – Москва: Yurayt, 2021.
- 7.Mirzayev A.M. Kriminalistika: darslik. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi nashriyoti, 2020.
- 8.Rahimov R.A. Kriminalistika texnika asoslari. – Toshkent: Adolat, 2019.
- 9.Norqobilov N.N. Hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertisasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2021.
- 10.Saidov A.X., Hamidov B.B. Kriminalistika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2022.
- 11.Islomov Z.M. Sud ekspertisasi nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Yurist Media Markazi, 2020.
- 12.To'rayev B.X. Hujjatlarni kriminalistik tadqiq etish asoslari. – Toshkent: Adolat, 2021.